O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHI HUZURIDAGI SUDYALAR OLIY MAKTABI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.37/27.02.2020.Yu.107.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHI HUZURIDAGI SUDYALAR OLIY MAKTABI

ISANOV XOLMUROD RUZIYEVICH

Fors-major – fuqarolik-huquqiy kategoriya sifatida: nazariya va amaliyot

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi. Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

Yuridik fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

UDK: 347.411(575.1)

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of the Doctoral (DSc) dissertation abstract

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHI HUZURIDAGI SUDYALAR OLIY MAKTABI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.37/27.02.2020.Yu.107.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHI HUZURIDAGI SUDYALAR OLIY MAKTABI

ISANOV XOLMUROD RUZIYEVICH

Fors-major – fuqarolik-huquqiy kategoriya sifatida: nazariya va amaliyot

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi. Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

Yuridik fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

Fan doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.DSc/Yu152 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) “Ziyonet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	**Oqyulov Omonboy Oqyulovich** yuridik fanlar doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Gulyamov Said Saidahrorovich** yuridik fanlar doktori, professor
	Aminjonova Matluba Ahmedovna yuridik fanlar doktori, professor
	Shodmonov Furqat Mamayusupovoch yuridik fanlar doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazi**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktab huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.37/27..02.2020.Yu.107.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi Bir martalik ilmiy kengashning 2024-yil 19 aprel kuni soat 15:30 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100097, Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Cho‘ponota ko‘chasi, 6-uy. Tel.: (99855) 501-01-89; faks: (99855) 501-01-89; e-mail: tm_devon@mail.ru).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (16-24-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100097, Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Cho‘ponota ko‘chasi, 6-uy. Tel.: (99855) 501-01-89; faks: (99855) 501-01-89).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “2” aprelda tarqatildi.
(2024-yil “2” apreldagi 1-raqamli reestr bayonnomasi).

K.O. Sindarov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

M.P.Qalandarova

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi, yuridik fanlar nomzodi, dotsent

B.B. Samarxodjaev

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

KIRISH (yuridik fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda tez-tez sodir bo‘layotgan turli-tuman tabiiy ofatlar va ijtimoiy, iqtisodiy, harbiy, siyosiy vaziyatlar oqibatlari tufayli yuzaga kelayotgan fors-major holatlari nafaqat insonlar hayoti, sog‘ligi va turmush tarzi, balki iqtisodiy munosabatlarga ham salbiy ta’sir ko’rsatmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish bo‘yicha Byurosi (UNISDR, Jeneva) ma’ruzasiga ko‘ra, “so‘nggi 20 yil mobaynida er yuzida tabiiy ofatlar soni ikki hissaga oshishi natijasida dunyo iqtisodiyoti 3 trillion AQSh dollari miqdorida zarar ko‘rgan”[1]. “Har yili o‘rtacha 1,4 million respublikamiz aholisiga ham tabiiy ofatlar oqibatlari ta’siri natijasida 3 milliard AQSh dollariga yaqin miqdorda zarar etkaziladi”[2]. Tabiiy ofatlar va halokatli hodisalar natijasida yuzaga kelgan fors-major holatlari salbiy oqibatlarini kamaytirish hamda iqtisodiy munosabatlar ishtirokchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish mazkur sohaning dolzarbligini ko’rsatadi. Bu esa, murakkab vaziyatlar tufayli yuzaga kelgan fors-major holatlari bilan bog’liq munosabatlarni huquqiy tartibga solishning samarali mexanizmlarini yaratishni talab etadi.

Jahonda, jumladan anglo-sakson, roman-german va islom huquqi tizimi mamlakatlarida fors-major holati kategoriyasi ham ilmiy kategoriya, ham qonunchilik segmenti, ham sud amaliyoti kategoriyasi sifatida mavjud. U barcha mamlakatlarda kutilmagan vaziyatlar taqozosiga ko‘ra mushkul ahvolda qolgan subyektlarni adolat va insof asosida himoya qilish funksiyasini muvaffaqiyatli bajarmoqda. Shu bois, fors-major holatiga oid xorijiy davlatlar qonunchiligi, huquqni qo’llash va sud amaliyoti, shuningdek xalqaro amaliyotni o’rganish, bu borada qonun hujjatlari va huquqni qo’llash amaliyotida uchraydigan muammolarning ilmiy-nazariy va amaliy yechimini topishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda qonun ustuvorligini ta’minlash, sud-huquq tizimini isloh qilish, fors-major holatlari bilan bog’liq munosabatlarni huquqiy tartibga solish borasida keng qamrovli dasturiy tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, “O‘zbekiston–2030” strategiyasida[3] “Qonun ustuvorligini ta‘minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish” ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha muhim vazifalar nazarda tutilgan. Mamlakatimiz milliy huquq doktrinasida, jumladan sivilistika nazariyasida ham fors-major holati kategoriyasining huquqiy tabiati bo‘yicha yaxlit va mukammal paradigma ishlab chiqilmagan. Uning huquqiy va nohuquqiy manba sifatidagi xususiyatlari to‘liq tahlil etilmagan. Huquqni qo‘llash va sud amaliyotida fors-major holati kategoriyasiga nisbatan yagona yondashuvlar

---

[1]Доклад Бюро ООН по сокращению риска бедствий (UNISDR) «ООН: Изменение климата увеличивает число природных катастроф». https://universe-tts.su/main/klimat/86817-oon-izmenenie-klimata-uvelichivaet-chislo-prirodnyh-katastrof.html;

[2] https://mineconomy.uz/uz/news/view/4105.

[3]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli Farmoni. https://old.lex.uz/docs/6600413.

va talqin etishlar amaliyoti shakllanmagan. Xususan, fors-major holatlari doirasini kengaytirilgan yoxud cheklangan holda belgilash holatlari kuzatiladi. Ko'rsatib o'tilganlar mamlakatimizda fors-major holati institutini takomillashtirish bilan bog'liq ilmiy-nazariy va amaliy muammolar dolzarbligi hamda mazkur muammolarni hal etishga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish zarurati borligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (1996), Mehnat kodeksi (2022), Bojxona kodeksi (2016), Soliq kodeksi (2019), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-apreldagi F-5464-sonli "O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoyishi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-oktyabrdagi 625-sonli "Yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlarini tasdiqlash bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash haqida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli "O'zbekiston–2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni va sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I."Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirshda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirsh va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi[4]**.** Fors-major holatining huquqiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar dunyoning etakchi ilmiy markazlari va universitetlarida, jumladan University of Washington, University of Pennsylvania (Amerika Qo'shma Shtatlari); Oxford University (Buyuk Britaniya); University of British Columbia (Kanada); University of Brussels (Belgiya); Victoria University of Wellington (Yangi Zelandiya); M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetida, O.E.Kutafin nomidagi Moskva davlat yuridik universitetida, Yevropa universitetining Sankt-Peterburgdagi huquqni qo'llash muammolari institutida, Samara milliy tadqiqotlar universitetida (Rossiya Federatsiyasi); Toshkent davlat yuridik universitetida, O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabida (O'zbekiston) olib borilmoqda.

Jahonda fors-major holati huquqiy asoslarini takomillashtirishga oid amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijasida, jumladan quyidagilarga erishilgan: standart tijorat shartnomalarida boshqarib bo'lmaydigan hodisalar xavfini taqsimlash va fors-major holatlariga oid shartlar asoslantirilgan (University of Pennsylvania); shartnoma huquqida fors-major holatlari va majburiyatlarning vijdonan ijro etilishi asoslantirilgan (University of Washington); Pandemiya

[4]Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi https://www.upenn.edu; https://www.cambridge.org; https://search.ufl.edu; https://www.ox.ac.uk; https://www.uchicago.edu; https://www.princeton.edu; http:www.tsul.uz/ va boshqa manbalar asosida amalga oshirilgan.

oqibatlari va Xitoy Xalq Respublikasining fors-major holatiga oid fuqarolik qonunchiligi ishlab chiqilgan (Oxford University); avtotransportda yuk tashishning fors-major holatlari bilan bog‘liq masalalari ochib berilgan (University of British Columbia); xalqaro munosabatlarda pandemiya oqibatlari tufayli yuzaga kelgan fors-major holatlari bilan bog‘liq muammolar asoslantirilgan (University of Brussels); fuqarolik huquqida shartnoma maqsadlariga taraflarning erishib bo‘lmaslik (frustratsiya) va fors-major holatlari ishlab chiqilgan (Victoria University of Wellington); tizimli xavf-xatarlarni fors-major holatlari sifatida normativ malakalash muammolari asoslantirilgan (M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti); xalqaro xususiy huquqda “covid” davrida fors-major holatlarini huquqiy tartibga solish xususiyatlari ochib berilgan (O.E.Kutafin nomidagi Moskva davlat yuridik universiteti); fors-major holatlari va tadbirkorlik tavakkalchiligi qiyosiy-huquqiy tahlili amalga oshirilgan (Yevropa universitetining Sankt-Peterburgdagi huquqni qo‘llash muammolari instituti); fors-major holatlariga oid shartlar va vaziyatning jiddiy o‘zgarishi asoslantirilgan (Samara milliy tadqiqotlar universiteti); fors-major holatiga oid xalqaro huquqiy hujjatlarning xalqaro arbitrajda qo‘llanishi masalalari asoslantirilgan (TDYU), shuningdek fors-major holatini huquqiy tartibga solish muammolari tahlil qilinib, unu takomillashtirishga doir takliflar ishlab chiqilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dissertatsiya mavzusi O‘zbekiston Respublikasida fuqarolik huquqi fani nuqtai nazaridan etarli darajada o‘rganilmagan. Fors-major holatini huquqiy tartibga solish bilan bog‘liq ayrim muammolar mamlakatimiz olimlari – H.Rahmonqulov, I.Zokirov, O.Oqyulov, M.Barotov, I.Rustambekov, Q.Mehmonov asarlarida ilmiy tahlil etilgan[5]. Shuningdek, N.Imomov, N.Egamberdieva va N.Ashurovalar (zarar etkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar, zarar etkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlarning kelib chiqishi, ularning alohida turlari va o‘ziga xos xususiyatlari, zarar etkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik asoslari va shartlari) va V.R.Topildiyev (majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlik asoslari va qarzdorni javobgarlikdan ozod etish asoslari) tomonidan fuqarolik-huquqiy javobgarlik masalalari bo‘yicha tadqiqotning muayyan bir qismi sifatida o‘rganilgan[6].

Fors-major holatini huquqiy tartibga solishning nazariy va amaliy jihatlari xorijiy mamlakatlar olimlari – L.A. Di Mattco, T.Rauh, J.Denver, F.Bortolotti, A.Kenneth, A.Adams, M.Rüscher, H.W. Sullivan, Jr. Steven Paul Barra, Agnieszka Ason, Michal Meidan, N.Bechteler, E.E Pirvis, Ye.A.Pavlodskiy, O.S.Ioffe, Ya.O.Alimova, I.V.Galkin, O.S.Yeraxtina, A.S.Komarov va N.P.Korshunova kabi olimlar tomonidan tadqiq qilingan[7].

---

[5]Mazkur olimlar asarlarining to'liq ro'yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatida ko’rsatilgan.
[6]Mazkur olimlar asarlarining to'liq ro'yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatida ko’rsatilgan.
[8]Mazkur olimlar asarlarining to'liq ro'yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatida ko’rsatilgan.

Yuqorida nomlari ko‘rsatib o‘tilgan olimlarning ilmiy tadqiqotlari fors-major holatlari bilan bog‘liq munosabatlarning muayyan nazariy va amaliy qirralariga bag‘ishlangan. Tadqiqot ishlarining ayrimlari esa, ma’lum bir ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlardan kelib chiqqan holda tayyorlanganiga e’tibor qaratilib, ulardan mazkur izlanishga kompleks huquqiy tartibga solish yondashuvi nuqtai nazardan dissertatsiya manbasi sifatida ijodiy foydalanildi. Shu bilan birga, mazkur manbalar tahlili mamlakatimizda fors-major holatlari bilan bog‘liq munosabatlarning nazariy va amaliy masalalariga bag‘ishlangan alohida kompleks tadqiqot olib borilmaganini ko‘rsatdi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi ilmiy tadqiqot rejasiga kiritilgan va ilmiy tadqiqotning ustuvor yo’nalishlari doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi fors-major holatining mazmun-mohiyati va uni tartibga solishning fuqarolik-huquqiy mexanizmlarini rivojlantirishga oid ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha fuqarolik-huquqiy ilmiy asoslarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

O‘zbekistonda javobgarlikdan ozod etish yoki javobgarlikni istisno etishning asosi sifatida fors-major holatiga oid huquqiy ta’limotlar va ularning tarixiy shakllanish bosqichlarini yoritib berish;

fors-major holati tushunchasi, mazmun-mohiyati va belgilarini tahlil qilish va uning ilmiy ta’rifini ishlab chiqish;

fors-major holatining huquqiy tabiati va milliy huquq tizimida tutgan o‘rnini huquqiy kategoriya sifatida tadqiq etish;

fors-major holatlarini tasniflash va ularning shartnoma majburiyatlari bajarilishiga ta’sir ko‘rsatishi hamda delikt majburiyatlar bo‘yicha fuqarolik-huquqiy xususiyatlarini ochib berish;

fors-major holatiga oid xorijiy davlatlar qonunchiligi va sud amaliyoti hamda xalqaro amaliyotni tahlil qilish;

fors-major holatiga oid milliy qonunchilik va sud amaliyotining hozirgi holatini tahlil qilish;

fors-major holati mavjudligini baholash muammolarini ilmiy-amaliy tadqiq qilish va uni baholashning adolatli mezonlarini ishlab chiqish;

fors-major holatiga oid qonun hujjatlarini sud amaliyotida qo‘llash muammolarini ilmiy-amaliy tadqiq qilish va ularni hal etish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

fors-major holatiga oid milliy qonunchilikni ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish va uni takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyektini fors-major holatini milliy va xalqaro-huquqiy tartibga solish bilan bog’liq ijtimoiy-huquqiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning predmetini fors-major holatini huquqiy tartibga solishga oid normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni qo‘llash va sud amaliyoti, xorijiy mamlakatlar

qonunchiligi va tajribasi hamda yuridik fanda mavjud bo‘lgan konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari sifatida uni amalga oshirish jarayonida ilmiy bilishning mantiqiy-yuridik, formal, qiyosiy-huquqiy, tizimli tahlil, statistik, shuningdek sotsiologik so‘rovlar kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

fors-major holatiga nisbatan turlicha yondashuv va talqin etishlarni bartaraf etish maqsadida, uning favquloddalik, muqarrarlik, taraflar nazoratidan tashqari to‘siq va nisbiylik belgilari mazmun-mohiyatini belgilab beruvchi O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik, Mehnat, Soliq va Bojxona kodeksiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonun loyihasi ishlab chiqilgan hamda uning qabul qilinishi zarurati asoslantirilgan;

fuqarolik huquqiy munosabatlarda adolat va insofni qonunlarda mujassamlashtirish haqida sivilistika doktrinasi tamoyillarini hisobga olish, fors-major holatining huquqiy va nohuquqiy nazariyasi asoslari, normativ negizi mavjudligi investitsion muhit jozibadorligini oshirishi va xorijiy rezidentlar ishonchini mustahkamlashi asoslantirilgan;

fors-major holati mavjudligini baholashning adolatli mezonlarini belgilash maqsadida, yuzaga kelgan fors-major holatining favquloddalik, muqarrarlik, taraflar nazoratidan tashqari to‘siq va nisbiylik kabi belgilari, uning adolatli mezonlari sifatida tatbiq etilishi lozimligi asoslantirilgan;

sudlarda majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun javobgarlikni belgilash bilan bog‘liq ishlarni ko‘rishda fors-major holatiga oid qonun hujjatlarining to‘g‘ri va bir xilda qo‘llaishini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Sudlar tomonidan fors-major holatiga oid qonun hujjatlarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarori loyihasi ishlab chiqilgan va uning qabul qilinishi zarurati asoslantirilgan;

respublika hududida fors-major holatlarini yuzaga keltirishi mumkin bo‘lgan har qanday tabiiy ofatlar va texnogen xavfli vaziyatlarni prognoz qilish natijasida olingan ma’lumotlarni bir joyga to‘plash, saqlash va ularni tezkor ravishda yetkazib berish bo‘yicha maxsus xizmat – Yagona davlat raqamli axborotlar Markazi (YaDRAM) faoliyatini tashkil etish, ushbu “YaDRAM” mustaqil markaziy ijroiya organi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi organlari tizimida faoliyat ko‘rsatishi va to‘plangan ma’lumotlarni raqamli axborot-kommunikatsiya tizimlari orqali barcha xalq xo‘jaligi sohalari, shu jumladan har bir fuqaro va tadbirkorlik subyektlariga tezkor ravishda manzilli yetkazib berishni ta’minlash, shuningdek Yagona davlat raqamli axborotlar Markazi (YaDRAM) faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishga qaratilgan normativ-huquqiy hamda metodik baza yaratish zarurati asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

sivilistika nazariyasi va doktrinasi asosida fors-major holati fuqarolik muomalasi ishtirokchilari xohish-irodasi va xatti-harakatlariga bog‘liq bo‘lmagan, to‘satdan sodir bo‘lgan va oldindan bashorat qilish, muayyan sharoitlarda oqibatlari oldini olish yoki bartaraf etish mumkin bo‘lmagan favqulodda va muqarrar hodisa natijasida majburiyatlar buzilishi va aybsiz zarar yetkazilishiga olib keladigan holat

ekanligi asoslantirilgan hamda fors-major holatiga oid qonun hujjatlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan;

respublikamizda fors-major holati bilan bog‘liq munosabatlar ham qonunchilik hujjatlari, ham ish muomalasi odatlari bilan huquqiy tartibga solinayotganligini tahlil qilish asosida fors-major holatini huquqiy tartibga solishning gibrid (aralash) tizimini takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

fors-major holatining favquloddalik, muqarrarlik, taraflar nazoratidan tashqari to‘siqligi, nisbiyligi kabi belgilari mazmun-mohiyatini ochib berish va ularni baholovchi mezonlar sifatida tatbiq etish asosida fors-major holatiga nisbatan yondashuvlarni birxillashtirishga xizmat qiluvchi baholashning adolatli mezonlari ishlab chiqilgan;

fors-major holatlari bo‘yicha “status-kvo”ni qo‘llashda huquqbuzilishlarga, jumladan kontragentlarning asossiz boyib ketishiga yo‘l qo‘yilmasligi va asosiy majburiyatlarni bajarishdan ozod qilinmasligi tahlil qilinib, taraflar o‘rtasida zararlarning taqsimlanishi o‘zaro kelishuv yoki sud tartibida “adolatli taqsimlash” va “teng taqsimlash” tamoyillari asosida amalga oshirilishi taklif etilgan;

fors-major holatlariga o‘xshash holatlar sifatida yuzaga kelgan, lekin haqiqiy bo‘lmagan va majburiyatlarning bajarilishiga to‘sqinlik qilishiga qaramasdan, javobgarlikdan ozod etishning asosi sifatida tan olinmaydigan “kvazi fors-major holati” tushunchasi milliy huquq tizimiga kiritilishi va ushbu tushuncha qonunchilikning barcha tarmoq turlari doirasida keng qo‘llanilishi bo‘yicha taklif ishlab chiqilgan;

davlat organlari va ular mansabdor shaxslari, shu jumladan tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar, surishtiruv, dastlabki tergov, prokuratura organlari va sudning tadbirkorlik subyektlariga nisbatan qonunga xilof harakatlari natijasida tadbirkorlik subyektlari va kontragentlar o‘rtasida tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarishning qiyinlashishi yoki buzilishi tufayli aybsiz zarar yetkazilganlik hodisasi yuridik fakt sifatida fors-major holati deb topilishi taklif etilgan;

fors-major holati o‘zaro huquq va majburiyatlar bilan bog‘liq bo‘lgan huquq subyektlari o‘rtasidagi huquqiy munosabatlarga ta’sir ko‘rsatadigan va muayyan huquqiy oqibatlarni keltirib chiqaradigan yuridik fakt bo‘lganligi sababli, fuqarolik qonunchiligining fors-major holatiga oid huquq normalari nafaqat tadbirkorlik faoliyati subyektlariga, balki fuqarolik muomalasining barcha ishtirokchilariga nisbatan bir xilda qo‘llanishi taklif etilgan;

fors-major holatlari oqibatida yetkazilishi mumkin bo‘lgan zararlarni zamonaviy ilm-fan va texnika vositalaridan samarali foydalangan holda minimallashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha qarzdorning xatti-harakatlari mazmun-mohiyati tahlil qilinib, milliy huquq tizimiga fors-major holatiga “insofli asosda qarshi turish” tushunchasi kiritilishi va qarzdorning fors-major holatiga “insofli asosda qarshi turish” xatti-harakatlari “oqilonalik” “ehtiyotkorlik”, “g‘amxo‘rlik” va “qat’iyatlilik” tamoyillari asosida amalga oshirilishi taklif etilgan;

respublika hududida fors-major holatini yuzaga keltirishi mumkin bo‘lgan tabiiy ofatlar va texnogen xavfli vaziyatlarni prognoz qilish natijasida olingan ma’lumotlarni bir joyga to‘plash, saqlash va ularni yetkazib berish bo‘yicha maxsus xizmat, ya’ni Yagona davlat raqamli axborotlar Markazi (YaDRAM) tuzilishi va u mustaqil markaziy ijroiya organi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining organlari tizimida faoliyat ko‘rsatishi, to‘plangan ma’lumotlarni raqamli axborot-kommunikatsiya tizimlari orqali xalq xo‘jaligi sohalari, shu jumladan har bir fuqaro va tadbirkorlik subyektiga tezkor ravishda manzilli yetkazib berilishi taklif etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari milliy qonunchilik normalari, xalqaro standartlar, rivojlangan xorijiy davlatlar qonunchligi va sud amaliyoti, ijtimoiy so‘rovlar, statistik ma’lumotlar tahliliga asoslangan hamda tadqiqot jarayonida foydalanilgan nazariy yondashuvlar rasmiy manbalardan olingan.

Tadqiq etilayotgan mummo bo’yicha sudlar tomonidan 2020-2022-yillarda ko’rilgan ishlar o’rganilgan va 1368 nafar O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi professor-o‘qituvchilari, tinglovchilari, tayanch doktorant va doktorantlari, mustaqil izlanuvchilari o‘rtasida so’rovnomalar o‘tkazilib, natijalar tahlil qilingan va umumlashtirilgan. Xulosa, taklif va tavsiyalar aprobatsiyadan o’tkazilib, ularning natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e’lon qilingan. Vakolatli davlat organlari tomonidan natijalarning joriy qilinishi bo’yicha dalolatnomalar bilan tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalar kelgusi ilmiy faoliyat, qonun ijodkorligi, huquqni qo‘llash va sud amaliyoti, qonun hujjatlarining tegishli normalarini sharhlash, milliy qonunchilikni takomillashtirishda, shuningdek tadqiqot natijalaridan yangi ilmiy tadqiqotlar olib borish imkonini berishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati mavzuni tadqiq etish natijasida shakllantirilgan ilmiy qoida, xulosa va tavsiyalardan Fuqarolik, Mehnat, Soliq, Bojxona kodeksini, Oliy sud Plenumining qarorlarini takomillashtirishda foydalanish imkonini yaratishi, natijalar huquqni qo’llash amaliyoti va ilmiy tadqiqot ishlarini, “Fuqarolik huquqi” va “Xo’jalik (tadbirkorlik) huquqi” fanlarini nazariy jihatdan boyitishda namoyon bo’ladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Fors-major – fuqarolik huquqiy kategoriya sifatida: nazariya va amaliyot bo‘yicha olingan xulosa, taklif va tavsiyalar asosida:

fors-major holatiga nisbatan turlicha yondashuv va talqin etishlarni bartaraf etish maqsadida, uning favquloddalik, muqarrarlik, taraflar nazoratidan tashqari to‘siq va nisbiylik belgilari mazmun-mohiyatini belgilab beruvchi O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik, Mehnat, Soliq va Bojxona kodeksiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi qabul qilinishi yuzasidan takliflar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28- oktyabrdagi 625-son qarori bilan tasdiqlangan “Yengib bo‘lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlarini tasdiqlash bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatishning

ma’muriy reglamenti”ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri kotibiyati Axborot-tahlil va yuridik ta’minlash departamentining 5-dekabr 2023-yildagi 12-15-124-sonli dalolatnomasi). Mazkur taklif fors-major holatlari bilan bog‘liq munosabatlarni huquqiy tartibga solishni takomillashtirishga xizmat qilgan;

fuqarolik huquqiy munosabatlarda adolat va insofni qonunlarda mujassamlashtirish haqida sivilistika doktrinasi tamoyillarini hisobga olish, fors-major holatining huquqiy va nohuquqiy nazariyasi asoslari, normativ negizi mavjudligi investitsion muhit jozibadorligini oshirishi va xorijiy rezidentlar ishonchini mustahkamlashi yuzasidan takliflar O‘zbekiston Respublikasining “Favqulodda holat to’g’risida”gi konstitutsiyaviy qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo’shimchalar va o’zgartish kiritish haqida” 2022-yil 2-martdagi O‘RQ-756-sonli Qonuni 3-moddasida o’z aksini topgan va O‘zbekiston Respublikasining ”Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuni 42-moddasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Byudjet va iqtisodiy islohotlar qo‘mitasining 19-dekabr 2023-yildagi 04/ 1-13-34-sonli dalolatnomasi). Mazkur taklif fors-major holatlari bilan bog‘liq tadbirkorlik faoliyatiga oid qonun hujjatlarini takomillashtirishga xizmat qilgan;

fors-major holati mavjudligini baholashning adolatli mezonlarini belgilash maqsadida, yuzaga kelgan fors-major holatining favquloddalik, muqarrarlik, taraflar nazoratidan tashqari to‘siq va nisbiylik kabi belgilari, uning adolatli mezonlari sifatida tatbiq etilishi yuzasidan takliflar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 7-iyundagi 231-son qarori bilan tasdiqlangan “Mahalliy xo‘jalik shartnomalari doirasida yuzaga keladigan yengib bo‘lmaydigan kuch (fors-major) holatlarini tasdiqlash tartibi to‘g‘risida”gi nizomni ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri kotibiyati Axborot-tahlil va yuridik ta’minlash departamentining 5-dekabr 2023-yildagi 12-15-124-sonli dalolatnomasi). Mazkur taklif fors-major holatlari bilan bog‘liq munosabatlarni huquqiy tartibga solishni takomillashtirishga xizmat qilgan;

sudlarda majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun javobgarlikni belgilash bilan bog‘liq ishlarni ko‘rishda fors-major holatiga oid qonun hujjatlarining to‘g‘ri va bir xilda qo‘llaishini ta’minlash maqsadida, ishlab chiqilgan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Sudlar tomonidan fors-major holatiga oid qonun hujjatlarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarori loyihasi va uning qabul qilinishi yuzasidan takliflar O‘zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumining qarorini ishlab chiqishda foydalanilishi ma’lum qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlov hay’atining 2023-yil 6-oktyabrdagi 9069-sonli dalolatnomasi). Mazkur taklif fors-major holatiga oid huquqni qo’llash amaliyotini takomillashtirishga xizmat qilgan;

respublika hududida fors-major holatlarini yuzaga keltirishi mumkin bo‘lgan har qanday tabiiy ofatlar va texnogen xavfli vaziyatlarni prognoz qilish natijasida olingan ma’lumotlarni bir joyga to‘plash, saqlash va ularni tezkor ravishda yetkazib berish bo‘yicha maxsus xizmat – Yagona davlat raqamli axborotlar Markazi

(YaDRAM) faoliyati tashkil etilishi, ushbu “YaDRAM” mustaqil markaziy ijroiya organi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi organlari tizimida faoliyat ko‘rsatishi va to‘plangan ma’lumotlarni raqamli axborot-kommunikatsiya tizimlari orqali barcha xalq xo‘jaligi sohalari, shu jumladan har bir fuqaro va tadbirkorlik subyektlariga tezkor ravishda manzilli yetkazib berilishini ta’minlash, shuningdek Yagona davlat raqamli axborotlar Markazi (YaDRAM) faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishga qaratilgan normativ-huquqiy hamda metodik baza yaratilishi yuzasidan takliflar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-apreldagi 171-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi to‘g‘risida”gi nizomni ishlab chiqishda inobatga olingan (O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri kotibiyati Axborot-tahlil va yuridik ta’minlash departamentining 19-dekabr 2023-yildagi 12-15-128-sonli dalolatnomasi). Mazkur taklif fors-major holatlari bilan bog‘liq munosabatlarni huquqiy tartibga solishni takomillashtirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 6 ta respublika miqiyosidagi ilmiy-amaliy anjumanda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 22 ta ilmiy ish, jumladan, milliy jurnallarda 8 ta, xalqaro jurnallarda 5 ta, ilmiy anjumanlarda 9 ta, shuningdek 1 ta monografiya chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo’lib, uning hajmi 232 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish qismida** mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi, natijalarning e’lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Fors-major holati genezisi va huquqiy tavsifi”** deb nomlanib, unda fors-major holatiga oid huquqiy ta’limotlar va ularning tarixiy shakllanish bosqichlari, fors-major holati tushunchasi, uning mohiyati va belgilari hamda fors-major holatining huquqiy tabiati va milliy huquq tizimida tutgan o‘rni bilan bog‘liq masalalar tahlil qilingan.

Ushbu bobning “Fors-major holatiga oid huquqiy ta’limotlar va ularning tarixiy shakllanish boqichlari” deb nomlangan birinchi paragrafida muallif tomonidan ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish asosida fors-major holatini huquqiy tartibga solishning tarixiy shakllanish bosqichlari, jumladan bundan uch ming yil avvalgi zardushtiylik dini davridan bugungi kunga qadar yoritib berilgani holda, har

bir tarixiy davrda fors-major holati bilan bog‘liq munosabatlarni huquqiy tartibga solishning o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan.

Bundan uch ming yil avvalgi davrlarda hozirgi O‘zbekiston hududida vujudga kelgan zardushtiylik dinining tartib-qoidalari bayon etilgan “Avesto” kitobida ezgulik va halollik har qanday ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning bosh tamoyili va asosiy qoidasi sifatida qabul qilingan bo‘lib, shaxs o‘z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi tabiiy ofatlar oqibati, ya’ni fors-major holati tufayli kelib chiqqanda, u javobgarlikdan ozod etilgan. Xususan, zardushtiylik dini qoidalari asosida ikki xil majburiyat tan olingan bo‘lib, birinchidan, tantanali ravishda qasam ichish – “varuna”ga ko‘ra shaxsning biron iqtisodiy majburiyatni olishi yoki olmasligi tushunilgan va ikkinchidan, ushbu ichilgan qasam bitim yoki shartnoma hisoblanib, unga ko‘ra taraflar o‘zaro manfaatdorlik jihatidan ma’lum bir iqtisodiy munosabatlar to‘g‘risida kelishuvga erishgan. Ushbu ikkala holda ham kelishish natijasida olingan majburiyatning kuchi taraflar tomonidan ichilgan qasamda yashiringan bo‘lib, bu kuch ilohiy deb hisoblangan va ilohiy kuch o‘zaro shartlashgan taraflarga hamkorlik qiladi, ya’ni o‘z so‘ziga qat’iy bo‘lgan tarafni qo‘llab-quvvatlaydi yoki qasami va so‘zida turmagan tarafni jazolaydi, deb hisoblangan. Shu sababli, shartnomaviy munosabatlarga kirishgan va o‘zaro majburiyatlarga ega bo‘lgan taraflar tabiiy ofatlar oqibatlari, ya’ni fors-major holati tufayli majburiyatlarni bajara olmaganlik holati ilohiy kuchning xohish-irodasi deb hisoblangan va bunday holatlarda majburiyatni bajara olmagan taraf (qarzdor) ikkinchi taraf (kreditor) oldida o‘zining aybi yo‘qligi to‘g‘risida qasam ichishi talab etilgan. Ichilgan qasam uni ichgan taraf (qarzdor)ning o‘z majburiyatini bajarmaganligi uchun javobgarlikdan ozod etishning asosi sifatida qabul qilingan va ushbu qoidalar o‘sha davrlarda odat huquqi me’yorlari ko‘rinishida bo‘lgani holda, keyinchalik jamiyatning rivojlanib borishi natijasida yozma ravishdagi fuqarolik (xususiy) huquqiy munosabatlarni keltirib chiqargan.

Fors-major genezisi dastlab miloddan uch ming yil avvalgi zardushtiylik davrida boshlangan, ya’ni ushbu davrda fors-major holatiga oid qoidalar dastlab odat huquqi me’yorlari ko‘rinishida mavjud bo‘lgan va keyinchalik miloddan avvalgi 753-367-yillar mobaynida qadimgi Rim xususiy huquqining majburiyat huquqi instituti tarkibida shakllangan hamda fors-major holati konsepsiyasi hozirgi zamon huquq tizimlariga Rim huquqidan kirib kelgan.

Hozirgi O‘zbekiston hududida VII asr oxirlaridan XIX asrning ikkinchi yarmigacha ijtimoiy munosabatlar islom huquqi me’yorlari asosida tartibga solingan va ushbu huquq tizimi o‘zining taraqqiyoti natijasida Rim xususiy huquqi singari halqaro ahamiyat kasb etib borgani holda, islom huquqida majburiyat munosabatlari halollik, adolatlilik, insoflilik va ahdga sodiqlik tamoyillari asosida tartibga solingan hamda unda tabiiy ofatlar oqibatida, ya’ni fors-major holatida majburiyatlarni bajarmaganlik uchun javobgarlikdan ozod qiluvchi huquqiy normalar mavjud bo‘lgan.

Fors-major holati bilan bog‘liq munosabatlar XIX asr oxirlaridan XX asr boshlarigacha, ya’ni aralash (dualistik) huquq davrida islom huquqi va Chor

Rossiyasi qonunchiligi bilan tartibga solingan va bu RSFSR Grajdanlik kodeksi 1923-yil 1-yanvardan boshlab amalga kiritilgunga qadar davom etgan.

RSFSR Grajdanlik kodeksi asosida qabul qilingan O‘zbekiston SSRning Grajdanlik kodeksida (O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 1995-yilda qabul qilinib, 1996-yil 1-apreldan kuchga kirgunga qadar) fors-major holatiga oid normalar nazarda tutilmagan. Biroq, ushbu kodeksda javobgarlikning asosi ayb ekanligi belgilangan bo‘lib, qarzdor tomonidan majburyatlar har qanday holatda, shu jumladan fors-major holati tufayli buzilganda va uning aybsizligi isbotlanganda, javobgarlikdan ozod qilingan. Shunday qilib, fors-major holatiga oid huquqiy normalar faqat mustaqillik yillarida, jumladan 1996-yil 1-apreldan kuchga kirgan O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 333-moddasida o‘z aksini topgan bo‘lib, fors-major holati javobgarlikdan ozod qilishning asosi sifatida belgilab berilgan.

Fors-major holatining tarixiy shakllanish bosqichlari – odat huquqi me’yorlari davri (miloddan avvalgi X asrdan boshlab), qadimgi (arxaik) Rim huquqi davri (miloddan avvalgi 753-367-yillar), Rim klassik huquqi davri (miloddan avvalgi I asr oxirlaridan milodiy III asr oxirlarigacha), islom huquqi davri (milodiy VII asr boshlaridan XIX asrning oxirlarigacha), aralash huquq davri, ya’ni Chor Rossiyasi va islom huquqi davri (XIX asr oxirlaridan XX asr boshlarigacha), sovet huquqi davri (1923-1996-yillar) va mustaqil O‘zbekiston davlati fuqarolik huquqi (1996-yildan hozirgacha) davridan iborat.

O‘zbekiston mustaqilligi davrida fors-major holatiga oid qonunchilikning yaratilishi va rivojlanib borishi, xususan 1996-yil 1-apreldan e’tiboran Fuqarolik kodeksining amal qilishi bilan fors-major holatini huquqiy tartibga solish sohasida tegishli tizim yaratilib, fors-major holatiga oid huquqiy normalar bir qator qonun va qonun osti hujjatlarida belgilab berilgan.

Mazkur bobning “Fors-major holati tushunchasi, uning mohiyati va belgilari” deb nomlanuvchi ikkinchi paragrafida o‘rganilayotgan masala bo‘yicha olimlarning fikrlari tahlil qilingan. Xususan, muallif tadqiqotchi olimlar (A.A.Alekseev, Ye.A.Pavlodskiy, O.S.Ioffe, M.M.Agarkov, E.E.Pirvis, A.P.Fokov, O. Oqyulovlar)ning fikrlarini tahlil qilish asosida fors-major holati tushunchasi va uning mohiyatini ochib berib, fors-major holatiga quyidagi mualliflik ilmiy ta’rifini bergan: “Fors-major holati – huquqiy munosabatlar ishtirokchilari xohish-irodasi va xatti-harakatlariga bog‘liq bo‘lmagan, to‘satdan sodir bo‘lgan va oldindan bashorat qilish, muayyan sharoitlarda oqibatlari oldini olish yoki bartaraf etish mumkin bo‘lmagan favqulodda va muqarrar hodisa natijasida aybsiz majburiyatlarning buzilishi va zarar etkazilishiga olib kelgan holat”.

Bundan tashqari tadqiqotchi tomonidan fors-major holatining tasodifiylik, noodatiylik, favquloddalik, muqarrarlik, to‘satdanlik va tashqi xarakter kabi belgilarining o‘ziga xos xususiyatlari ilmiy-amaliy jihatdan asoslantirib berilgan.

Ushbu bobning “Fors-major holatining huquqiy tabiati va milliy huquq tizimida tutgan o‘rni” deb nomlanuvchi uchinchi paragrafida muallif tomonidan huquqiy munosabatlar tizimida javobgarlikdan ozod etish yoki javobgarlikni istisno etishning asosi sifatida fors-major holatining huquqiy tabiati va milliy huquq tizimida tutgan o‘rni atroflicha yoritib berilgan.

Tadqiqotchi milliy qonunchilikdagi fors-major holatiga oid munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar tahlilidan kelib chiqqan holda, quyidagi xulosalarni ilgari surgan:

Birinchidan, fors-major holati fuqarolik huquqining majburiyat instituti tarkibida shakllangan va fuqarolik muomalasi ishtirokchilari xohish-irodasi va xatti-harakatlariga bog‘liq bo‘lmagan, to‘satdan sodir bo‘lgan va oldindan bashorat qilish, muayyan sharoitlarda oqibatlari oldini olish yoki bartaraf etish mumkin bo‘lmagan favqulodda va muqarrar hodisa natijasida majburiyatlarning buzilishi va aybsiz zarar etkazilishiga olib kelgan holat ekanligi hamda majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikdan ozod qilish yoki javobgarlikni istisno qilishning asosi bo‘lganligi bois, unga avvalo fuqarolik-huquqiy kategoriya sifatida qaralishi lozim.

Ikkinchidan, fors-major holati huquqiy munosabatlar tizimida huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining xohish-irodasi va xatti-harakatlariga bog‘liq bo‘lmagan, to‘satdan sodir bo‘lgan va oldindan bashorat qilish, muayyan sharoitlarda oqibatlari oldini olish yoki bartaraf etish mumkin bo‘lmagan favqulodda va muqarrar hodisa natijasida majburiyatlarning buzilishi va aybsiz zarar etkazilishiga olib kelgan holat ekanligi hamda majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun javobgarlikdan ozod qilish yoki javobgarlikni istisno qilishning asosi bo‘lganligi bois, umumhuquqiy kategoriya sifatida qaralishi lozim.

Uchinchidan, fors-major holati barcha huquq sohalari doirasida majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun javobgarlikdan ozod qilish yoki javobgarlikni istisno qilishning asosi bo‘lgan umumhuquqiy kategoriya ekanligi bois, milliy huquq tizimida kompleks huquqiy konstruksiya sifatida qaralishi lozim.

Bundan tashqari tadqiqotchi tomonidan fors-major holatiga shaxsning muayyan harakatlarni amalga oshirishga xalaqit qilgan yoki aksincha, shaxsni muayyan harakatlarni qilishga majbur qilgan yoxud qarzdorning kreditor oldidagi majburiyatini bajarishda to‘sqinlik qilgan va uning xohish-irodasi, ixtiyoridan tashqari hodisa yoki vaziyat sifatida qarash lozimligi ilmiy-amaliy jihatdan asoslantirib berildi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Fors-major holatlarining tasnifi va ularning fuqarolik-huquqiy xususiyatlari”** deb nomlanib, unda fors-major holatlari bir qancha mezonlar asosida tasniflanib, ularning shartnoma majburiyatlarining bajarilishiga taъsir ko‘rsatishi va delikt majburiyatlar bo‘yicha fuqarolik-huquqiy xususiyatlari tadqiq etilgan.

Ushbu bobning birinchi paragrafi “Fors-major holatlarining tasnifi”ga bag‘ishlangan bo‘lib, unda o‘rganilayotgan masala bo‘yicha hozirgi zamon xalqaro amaliyotda fors-major holatiga oid yondashuvlar va olimlarning fikrlari tahlil qilingan. Jumladan, Xalqaro Savdo Palatasi (ICC) tomonidan xalqaro tijorat amaliyoti bo‘yicha 2020-yilda yangi tahrirda ishlab chiqilgan “Fors-major holatlari va vaziyatlarning jiddiy o‘zgarishi to‘g‘risida pisandalar” va tadqiqotchi olimlar (V.I.Sergeev va D.Chernenkolar)ning fikrlarini tahlil qilish asosida fors-major

holatlarini barcha huquq sohalariga tegishli bo‘lgan umumhuquqiy kategoriya sifatida bir qancha mezonlar asosida tasniflash bo‘yicha takliflar berilgan:

Birinchidan, huquqiy munosabatlar ishtirokchilari xohish-irodasiga bog‘liqligiga ko‘ra, hodisalar va xatti-harakatlar;

Ikkinchidan, юridik fakt sifatida ma’lumligiga ko‘ra, umume’tirof etilgan faktlar va sudda isbotlanishi shart bo‘lgan faktlar;

Uchinchidan, huquqiy tartibga soladigan huquq sohasiga ko‘ra, ommaviy huquq, xususiy huquq, xalqaro ommaviy huquq, xalqaro xususiy huquq sohasiga tegishli;

To‘rtinchidan, huquqiy oqibatlarni yuzaga keltirishiga ko‘ra, javobgarlikdan ozod qilish, majburiyatni bekor qilish, shartnomani o‘zgartishi yoki bekor qilish, majburiyatni bajarishni yoki da’vo muddati o‘tishini to‘xtatib turish, o‘zaro kelishuv bitimini tuzish;

Beshinchidan, salbiy oqibatlarni yuzaga keltirish darajasiga ko‘ra, xalqaro (global yoki mintaqaviy, milliy (davlat yoki lokal), mahalliy (viloyat yoki tuman), xususiy (alohida korxona yoki yuridik shaxlar);

Oltinchidan, etkazilgan zarar miqdoriga ko‘ra, ko‘p bo‘lmagan miqdordagi zarar, ko‘p miqdordagi zarar, juda ko‘p miqdordagi zarar;

Yettinchidan, yuzaga kelish sohasiga ko‘ra, ma’muriy-huquqiy (favqulodda holatning joriy qilinishi, davlat tomonidan normativ-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi, davlat organlari va ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof xatti-harakatlari va boshqalar), ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, harbiy (ish tashlashlar, epidemiyalar, iqtisodiy sanksiyalar, diplomatik aloqalarning to‘xtatilishi, urushlar yoki harbiy harakatlar kabilar), tabiiy-iqlim (zilzila, suv toshqinlari, sunami, tayfun va shu kabilar), texnogen hodisalar (avariyalar, portlashlar, suv to‘g‘onlarining buzilishi va boshqalar).

Tadqiqotchi tomonidan berilgan fors-major holatlarining tasnifi milliy, xorijiy davlatlar yoki xalqaro huquqni qo‘llash amaliyotida fors-major holati sifatida tan olingan barcha hodisalar yoki xatti-harakatlarni qamrab olmasligi mumkinligi, ya’ni bunda har bir fors-major holatining yuzaga kelishi bevosita insonlarning xohish-irodasi va xatti-harakatlariga bog‘liq bo‘lmagan, to‘satdan sodir bo‘lgan va oldindan bashorat qilish, muayyan sharoitlarda oqibatlari oldini olish yoki bartaraf etish mumkin bo‘lmagan favqulodda va muqarrar alohida hodisa yoki xatti-harakat sifatida namoyon bo‘lishi inobatga olinishi lozim.

Ikkinchi bobning ikkinchi paragrafi “Fors-major holatlarining fuqarolik-huquqiy xususiyatlari”ga bag‘ishlangan bo‘lib, unda tadqiqotchi majburiyatlarning bajarilishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan fors-major holatlar sifatida tabiiy ofatlar, harbiy harakatlar va urushlar, terrorchilik harakatlari, uchinchi shaxslarning yashirin xarakterdagi harakatlari va majburiyatlarning bajarilishiga bevosita ta’sir ko‘rsatmaydigan fors-major holatlar sifatida ish tashlash (zabastovka)lar, davlat hokimiyati organlari tomonidan normativ-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi kabi hodisalarning fuqarolik-huquqiy xususiyatlarini yoritib bergan. Xususan, tabiiy ofatlar oqibatida etkazilgan zararlarga oid statistik hisobotlar va tadqiqochi olimlar (N.P. Korshunova, D. Chernenko, Z.V.Gradoboeva, Ye.V.Passek, S.A.Ivanov, V.Tomsinov, N.M.Golovin, Sh.I.Budman, Ye.A.Pavlodskiy, M.I.Braginskiy,

I.Vlasyuklar)ning fikrlarini tahlil qilish asosida tabiiy ofatlar, harbiy harakatlar va urushlar, terrorchilik harakatlari ish tashlash (zabastovka)lar, davlat hokimiyati organlari tomonidan normativ-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi kabi voqea-hodisalar oqibatlari fors-major holatini yuzaga keltirishi ilmiy-amaliy jihatdan asoslantirilgan.

Ikkinchi bobning “Delikt majburiyatlarda fors-major holatlari” deb nomlangan uchinchi paragrafida o‘rganilayotgan masala bo‘yicha olimlarning fikrlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari (huquqiy aktlar sifatida) tahlil qilingan. Xususan, dissertant tadqiqotchi olimlar (V.A.Belov, M.P.Redin, O.Oqyulov, Ye.M.Kondratevalar)ning fikrlari va Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm viloyati hokimlarining qarorlarini tahlil qilish asosida delikt majburiyatlar bo‘yicha fors-major holatlarining fuqarolik-huquqiy xususiyatlari atroflicha ochib berilib, davlat hokimiyati organlari va ular mansabdor shaxslarining qonuniy yoki g‘ayriqonuniy harakatlari hamda tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar, surishtiruv, dastlabki tergov, prokuratura organlari va sudning qonunga xilof harakatlari oqibatida tadbirkorlik subyektlari bilan kontragentlar o‘rtasidagi shartnoma majburiyatlarini bajarishning qiyinlashishi yoki buzilishi tufayli aybsiz zarar etkazilishi fors-major holati sifatida qaralishi lozimligi ilmiy-amaliy jihatdan asoslantirib berilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Fors-major holatiga oid xorijiy davlatlar fuqarolik qonunchiligi va sud amaliyoti hamda xalqaro amaliyot”** deb nomlanib, unda roman-german, anglo-sakson va islom huquqi tizimlariga kiruvchi xorijiy davlatlarning fors-major holatiga oid fuqarolik qonunchiligi va sud amaliyoti, shuningdek fors-major holatlarini xalqaro huquqiy tartibga solishning o‘ziga xos xususiyatlari ilmiy-nazariy va amaliy nuqtai nazardan tahlil etilgan.

Ushbu bobning “Xorijiy davlatlarning fors-major holatiga oid fuqarolik qonunchiligi tahlili” deb nomlangan birinchi paragrafida Rossiya Federatsiyasi, Belarus Respublikasi, Qozog‘iston Respublikasi, Fransiya Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Buyuk Britaniya qirolligi, AQSh, Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirliklari va Misr Arab Respublikasi davlatlarining fors-major holatiga oid fuqarolik qonunchiligi tahlil qilinib, ushbu davlatlarda fors-major holatini fuqarolik-huquqiy tartibga solishning o‘ziga xos xususiyatlari ochib berildi. Jumladan, roman-german huquq tizimi davlatlari fuqarolik qonunchiligida fors-major holati tushunchasi umumiy qoida tariqasida belgilanganligi va majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun javobgarlikdan ozod etishning asosi sifatida qabul qilinishi, anglo-sakson huquq tizimi davlatlari fuqarolik qonunchiligida fors-major holati tushunchasi mavjud emasligi va unga huquqiy kategoriya sifatida qaralmasligi, umumiy qoidaga ko‘ra shartnoma taraflaridan biri majburiyatni bajarmasdan (breach of contract) uni buzganligi uchun javobgarlikka tortilishi mumkinligi, shuningdek uni bajarilishiga to‘sqinlik qilgan fors-major holati javobgarlikdan ozod etishning huquqiy vositasi sifatida qabul qilinishi mumkinligi, islom huquqi tizimi davlatlari fuqarolik qonunchiligida esa, fors-major holati shartnoma majburiyatlari bajarilishini (to‘liq yoki qisman) imkonsiz qiladigan hodisa sifatida fuqarolik huquqi, odat huquqi,

islom huquqi (shariat) normalari va adolat tamoyillari asosida majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun javobgarlikdan ozod etishning asosi sifatida qabul qilinishi mumkinligi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslantirilgan.

Mazkur bobning ”Fors-major holatiga oid xorijiy davlatlarning sud amaliyoti” deb nomlangan ikkinchi paragrafida Rossiya Federatsiyasi, Belarus Respublikasi, Qozog‘iston Respublikasi, Fransiya Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Buyuk Britaniya qirolligi, AQSh, Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirliklari va Misr Arab Respublikasi kabi xorijiy davlatlarning fors-major holatiga oid sud amaliyoti tahlil qilingan. Xususan, roman-german huquq tizimi davlatlari sud amaliyotida fors-major holatining mavjudligi fuqarolik qonunchiligi normalari va shartnoma shartlariga asoslanib aniqlanishi hamda shu asosda javobgarlik masalasi hal etilishi, anglo-sakson huquq tizimi davlatlari sud amaliyotida fors-major holati bilan bog‘liq masala faqat shartnomada fors-major holatiga oid shartlar nazarda tutilgan va majburiyatni bajarishga imkon bermaydigan holatlar yuzaga kelganda, javobgarlikdan ozod etilishidan manfaatdor tarafning talabi bilan ko‘rib chiqilishi va majburiyatni bajarmagan tarafni fors-major holati yoki boshqa holat asosida javobgarlikdan ozod etish yoki da’voni rad etish masalasi sud tomonidan mustaqil hal qilinishi, islom huquqi tizimi davlatlari sud amaliyotida fors-major holati bilan bog‘liq nizolarni hal etishda asosan fiqh me’yorlari va shariat qoidalari asosida qabul qilinib, qit’a huquq tizimi an’analariga xos ravishda kodifikatsiya qilingan kodekslar va shartnoma shartlari hamda adolat tamoyillariga asoslangan holda sud tomonidan qaror qabul qilinishi mumkinligi ilmiy-amaliy jihatdan asoslab berilgan.

Uchinchi bobning ”Fors-major holatlarining xalqaro huquqiy tartibga solinishi va xalqaro arbitrajda qo‘llanilishi” deb nomlangan uchinchi paragrafida fors-major holatlarining xalqaro huquqiy tartibga solinishi va ularga oid xalqaro-huquqiy hujjatlarning xalqaro arbitrajda qo‘llanilishi masalalari ilmiy-nazariy va amaliy tahlil qilingan. Xususan, Xalqaro arbitraj sudlari tomonidan Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Tovarlar xalqaro oldi-sotdi shartnomalari to‘g‘risida”gi Konvensiyasi, “Xalqaro tijorat shartnomalarining tamoyillari – UNIDRUA”, “Evropa shartnoma huquqining tamoyillari yoki Lando tamoyillari”, “Evropa xususiy huquqining model qoidalari”, “Qarama-qarshi savdo to‘g‘risida xalqaro shartnomalar tuzish bo‘yicha qo‘llanma” va Xalqaro Savdo Tashkilotining (ICC) “Fors-major holatlari va vaziyatlarning jiddiy o‘zgarishi to‘g‘risida pisandalar” kabi xalqaro-huquqiy hujjatlarning qo‘llanishi asosida shartnoma majburiyatining bajarilishiga to‘sqinlik qilgan har qanday vaziyat, agar shartnoma majburiyatini bajarmagan taraf uni bajarmasligi o‘z nazoratidan tashqari to‘siq natijasi ekanligi, shartnomani tuzishda bunday to‘sqinlik va uning oqibatlarini ko‘ra olmaganligi, shuningdek to‘siqning oldini olish yoki bartaraf etish imkoni bo‘lmaganligini isbotlagan taqdirda, uni fors-major holati asosida javobgarlikdan ozod etish to‘g‘risida qaror qabul qilinishi mumkinligi ilmiy-amaliy jihatdan asoslantirilgan.

Dissertatsiyaning to‘rtinchi bobi **”Fors-major holati huquqiy asoslarini takomillashtirish tendensiyalari”** deb nomlanib, unda O‘zbekistonda fors-major holatiga oid qonunchilik va sud amaliyotining hozirgi holati, fors-major holatini

baholashning adolatli mezonlari va uni huquqiy tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish istiqbollari masalalari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etilgan.

Ushbu bobning ”O‘zbekistonda fors-major holatiga oid qonunchilik va sud amaliyotining hozirgi holati” deb nomlangan birinchi paragrafida qayd etilishicha, hozirgi yangi O‘zbekistonda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillari mamlakat taraqqiyotining eng asosiy va zarur sharti sifatida belgilanib, sud-huquq sohasida keng ko‘lamli demokratik islohotlar amalga oshirib borilayotgan bir paytda fors-major holatlari bilan bog‘liq munosabatlar asosan fuqarolik qonunchiligi yoxud qonunchilikning boshqa tarmoq turlari, jumladan mehnat, soliq, bojxona qonunchiligi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solib kelinayotganligi va ushbu qonunchilik hujjatlarida fors-major holati umumiy qoida tariqasida belgilab berilganligi, uning legal ta’rifi, belgilari va uni adolatli baholash mezonlariga oid normalar mavjud emasligi, shu bilan birga, hozirgi sud amaliyotida shartnoma majburiyatlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun javobgarlikni belgilash bilan bog‘liq nizolarni hal etishda fors-major holatiga oid qonun hujjatlarining qo‘llanishida turlicha yondashuvlar mavjudligi ilmiy-amaliy jihatdan asoslantirib berildi.

To‘rtinchi bobning ”Fors-major holatini baholashning adolatli mezonlari” deb nomlanuvchi ikkinchi paragrafida qayd etilishicha, huquqni qo‘llash amaliyotida qarzdor uchun majburiyatni bajarishda “qiyinchilik tug‘diradigan” va uning “oqilona nazoratidan tashqarida”gi to‘siqlarni ajratish imkonini beruvchi xalqaro huquqning birxillashtirilgan yagona qoidalarini o‘zida aks ettirgan – Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Tovarlar xalqaro oldi-sotdi shartnomalari to‘g‘risida”gi Konvensiyasi, Xalqaro tijorat shartnomalari tamoyillari (UNIDRUA), Xalqaro Savdo Palatasining “Fors-major holatlari va vaziyatning jiddiy o‘zgarishi to‘g‘risida pisandalari” ish muomalasi odatlari sifatida qo‘llanishi lozimligi ko‘rsatilib, ushbu xalqaro-huquqiy hujjatlar asosida fors-major holatini baholashning adolatli mezonlari ishlab chiqilgan. Jumladan, fors-major holatini baholashning adolatli mezonlari sifatida yuzaga kelgan holatning favquloddaligi – taraflarning oqilona sinchkovligi va ehtiyotkorligi mavjud bo‘lgan holda, uni oldindan ko‘rish yoki bilish mumkin emasligi, ya’ni taraflar faoliyati xavf-xatarlari doirasidan tashqarida to‘satdan paydo bo‘lgan tahdid ekanligi; salbiy oqibatlar vujudga kelishining muqarrarligi – taraflar bunday oqibatlarning oldini olishga imkon beradigan choralar ko‘rishini asosli ravishda kutish mumkin emasligi, ya’ni ko‘riladigan har qanday zamonaviy chora-tadbirlarning natija bermasligi; yuzaga kelgan holatning taraflar nazoratidan tashqari to‘siqligi – majburiyatning bajarilmasligi uni bajarmagan tarafning nazorati ostida bo‘lmagan to‘siq tufayli yuzaga kelganligi va ayni ushbu to‘siq yuzaga kelgan holatning natijasi ekanligi; fors-major holatining nisbiyligi – uning yuzaga kelish joyi, vaqti, sharoitlari, jumladan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish sharoitlari va muayyan shartnoma munosabatlarining boshqa holatlari asosida kompleks baholashdan iborat ekanligi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslantirilgan.

Mazkur bobning ”Fors-major holatini huquqiy tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish istiqbollari” deb nomlangan uchinchi paragrafida O‘zbekiston Respublikasida fors-major holati bilan bog‘liq munosabatlarni huquqiy tartibga solish bo‘yicha bir qator takomilga etmagan masalalar mavjudligi va bular asosan fors-major holatining fuqarolik qonunchiligi yoxud qonunchilikning boshqa tarmoq turlari doirasida mukammal va atroflicha tartibga solinmaganligi, jumladan fuqarolik, mehnat, soliq, bojxona qonunchiligida fors-major holatining tushunchasi, belgilari va uni baholashning birxillashtirilgan mezonlaridan foydalanilmayotganligi, shuningdek huquqni qo‘llash amaliyotida majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun javobgarlikni belgilashda fors-major holatiga oid qonun hujjatlarining to‘g‘ri va bir xilda qo‘llanishi bo‘yicha ayrim takomilga etmagan masalalar mavjudligi tahlil qilingan.

Tadqiqotchining fikricha, O‘zbekiston Respublikasida fors-major holatini huquqiy tartibga tartibga solishning gibrid (aralash) tizimiga o‘tilganligi va uni takomillashtirish, jumladan fuqarolik qonunchiligida fors-major holatiga oid huquqiy normalarning dispozitivlik tamoyili asosida belgilab berilishi va ushbu normalar fuqarolik muomalasining barcha ishtirokchilariga nisbatan bir xilda tadbiq etilishi, milliy huquq tizimiga fors-major holatiga “insofli asosda qarshi turish” tushunchasi kiritilishi va qarzdorning fors-major holatiga “insofli asosda qarshi turish” xatti-harakatlari “oqilonalik” “ehtiyotkorlik”, “g‘amxo‘rlik” va “qat’iyatlilik” tamoyillari asosida amalga oshirilishi, shuningdek milliy huquq tizimiga “kvazi – fors-major holati” tushunchasi kiritilishi va ushbu tushuncha qonunchilikning barcha tarmoq turlari doirasida keng qo‘llanilishi, fors-major holati oqibatida etkazilgan zararlarning taraflar o‘rtasida taqsimlanishi o‘zaro kelishuv yoki sud tartibida “adolatli taqsimlash” va “teng taqsimlash” tamoyillari asosida amalga oshirilishi, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan fors-major holatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni bir joyga to‘plash, saqlash va ularni tezkor etkazib berish uchun maxsus xizmat – Yagona davlat raqamli axborotlar Markazi (YaDRAM) tuzilishi lozimligi ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan.

Fors-major holatiga oid qonunchilikni takomillashtirish va sud amaliyotida fors-major holatiga oid qonun hujjatlarining to‘g‘ri va bir xilda qo‘llanishi bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Jumladan, birinchidan fuqarolik, mehnat, soliq va bojxona qonunchiligi yoxud qonunchilikning boshqa tarmoq turlari doirasida fors-major holatini tartibga soluvchi normalariga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi lozimligi, ikkinchidan, fors-major holatiga oid qonun hujjatlarining to‘g‘ri va bir xilda qo‘llanilishi bo‘yicha sud amaliyoti takomillashtirilishi lozimligi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslantirilgan.

Dissertant fikricha, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 330-moddasining uchinchi qismiga qo‘shimchalar kiritilib, u “Basharti, qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan shaxs majburiyatni lozim darajada bajarishga engib bo‘lmaydigan kuch, ya’ni favqulodda va muayyan sharoitlarda oldini olib bo‘lmaydigan vaziyatlar (fors-major) tufayli imkon bo‘lmaganligini isbotlay olmasa, javobgar bo‘ladi. Vaziyatning favquloddaligi uning muayyan sharoitda paydo bo‘lishi noodatiy

ekanligini va qarzdorning xohish-irodasiga bog‘liq bo‘lmagan holda to‘satdan paydo bo‘lgan obyektiv to‘siq sifatida majburiyatlarning bajarilishini imkonsiz qilganligini, shuningdek uning muayyan sharoitlarda oldini olib bo‘lmaydigan vaziyat ekanligi qarzdorning barcha oqilona va qonuniy harakatlari yuzaga kelgan to‘siqlarni bartaraf etish uchun etarli bo‘lmaganligi va uning yuz berishi shubhasiz ekanligini ko‘rsatadi” degan tahrirda bayon qilinishi, mazkur kodeksning 991-moddasi yangi uchinchi qism bilan to‘ldirilib, u “Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar, surishtiruv, dastlabki tergov, prokuratura organlari va sudning qonunga xilof harakatlari natijasida tadbirkorlik subyektlarining qonunga xilof tarzda hukm etilganligi, jinoiy javobgarlikka tortilganligi va ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olinganligi, agar tadbirkorlik subyektlari va kontragentlar o‘rtasida tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarishning qiyinlashishi yoki buzilishi tufayli aybsiz zarar etkazilishiga olib kelgan va agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, ushbu qonunga xilof harakatlar tadbirkorlik subyektlarining javobgarligini istisno etishning asosi hisoblanadi” degan tahrirda bayon qilinishi, O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi 334-moddasining ikkinchi qismiga qo‘shimchalar kiritilib, u “Ish beruvchi aybi bo‘lgan taqdirda majburiyatni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun, agar qonun yoki shartnomada boshqacha tartib belgilanmagan bo‘lsa, javob beradi. Ish beruvchi majburiyatni lozim darajada bajarish uchun o‘ziga bog‘liq bo‘lgan hamma choralarni ko‘rgan bo‘lishiga qaramasdan, majburiyatni lozim darajada bajarishga engib bo‘lmaydigan kuch, ya’ni favqulodda va muayyan sharoitlarda oldini olib bo‘lmaydigan vaziyatlar (fors-major holati) tufayli imkon bo‘lmagan bo‘lsa, u aybsiz deb topiladi. Fors-major holati ish beruvchining xohish-irodasi va xatti-harakatlariga bog‘liq bo‘lmagan, to‘satdan sodir bo‘lgan va uni oldindan bashorat qilish, oldini olish yoki bartaraf etish mumkin bo‘lmagan, favqulodda va muqarrar hodisa bo‘lib, uning favquloddaligi muayyan sharoitda paydo bo‘lishi noodatiy ekanligini va ish beruvchining xohish-irodasiga bog‘liq bo‘lmagan holda to‘satdan paydo bo‘lgan obyektiv to‘siq sifatida majburiyatlarning bajarilishini imkonsiz qilganligini, uning muayyan sharoitlarda oldini olib bo‘lmaydigan vaziyat ekanligi esa, ish beruvchining barcha oqilona va qonuniy harakatlari yuzaga kelgan to‘siqlarni bartaraf etish uchun etarli bo‘lmaganligi va uning yuz berishi shubhasiz ekanligini ko‘rsatadi” degan tahrirda bayon qilinishi, mazkur kodeksning 338-moddasi yangi uchinchi qism bilan to‘ldirilib, u “Bartaraf etib bo‘lmaydigan kuch (fors-major holati) deganda yuzaga kelgan vaziyatning favquloddaligi, ya’ni muayyan sharoitda noodatiyligi va xodimning xohish-irodasiga bog‘liq bo‘lmagan holda to‘satdan paydo bo‘lganligi, shuningdek xodimning zamonaviy bilimi va tajribasi asosida qilgan barcha oqilona va qonuniy harakatlari yuzaga kelgan vaziyatni bartaraf etish uchun etarli bo‘lmaganligi tufayli aybsiz zarar etkazilganligi tushuniladi” degan tahrirda bayon qilinishi, O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 215-moddasi birinchi qismining birinchi bandiga qo‘shimchalar kiritilib, u “1) soliqqa oid huquqbuzarlik belgilari bo‘lgan qilmishning tabiiy ofat yoki boshqa favqulodda va bartaraf etib bo‘lmaydigan holatlar oqibatida sodir etilganligi. Bunda yuzaga kelgan holatning favquloddaligi uning muayyan sharoitda

paydo bo‘lishi noodatiy ekanligini va soliq to‘lovchining xohish-irodasiga bog‘liq bo‘lmagan holda to‘satdan paydo bo‘lgan obyektiv to‘siq sifatida soliq to‘lovlari bo‘yicha majburiyatning bajarilishini imkonsiz qilganligini, shuningdek uning muayyan sharoitlarda bartaraf etib bo‘lmaydigan holat ekanligi esa, soliq to‘lovchining barcha oqilona va qonuniy harakatlari yuzaga kelgan to‘siqlarni bartaraf etish uchun etarli bo‘lmaganligi va uning yuz berishi shubhasiz ekanligini ko‘rsatadi. Mazkur holatlar hammaga ma’lum faktlarning mavjudligi, ommaviy axborot vositalarida e’lon qilingan ma’lumotlar va isbotlash uchun maxsus vositalar talab etilmaydigan boshqa usullar bilan aniqlanadi;” degan tahrirda bayon qilinishi, O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining 14-moddasi yangi ikkinchi qism bilan to‘ldirilib, u “Engib bo‘lmaydigan kuch (fors-major) holatining favquloddaligi uning muayyan sharoitda paydo bo‘lishi noodatiy ekanligini va shaxsning xohish-irodasiga bog‘liq bo‘lmagan holda to‘satdan paydo bo‘lgan obyektiv to‘siq sifatida majburiyatning bajarilishini imkonsiz qilganligini, shuningdek uning muayyan sharoitlarda bartaraf etib bo‘lmaydigan holat ekanligi esa, shaxsning barcha oqilona va qonuniy harakatlari yuzaga kelgan to‘siqlarni bartaraf etish uchun etarli bo‘lmaganligi va uning yuz berishi shubhasiz ekanligini ko‘rsatadi” degan tahrirda bayon etilishi hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Sudlar tomonidan fors-major holatiga oid qonun hujjatlarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilinishi zarurligi asoslantirib berilgan.

XULOSA

Fors-major – fuqarolik-huquqiy kategoriya sifatida: nazariya va amaliyot mavzusida o’tkazilgan tadqiqot natijasida quyidagi nazariy, amaliy va qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan taklif, tavsiya va xulosalar ishlab chiqildi:

I. Ilmiy-nazariy xulosalar:

1.1. Fors-major holatining milliy huquq tizimida tutgan o‘rni tahlil qilinib, u javobgarlikdan ozod qilish yoki javobgarlikni istisno qilishning asosi sifatida fuqarolik huquqining majburiyat huquqi instituti tarkibida shakllangan fuqarolik huquqiy kategoriya ekanligi va huquqiy munosabatlar tizimida umumhuquqiy kategoriya ekanligi to‘g‘risida konseptual asoslar ishlab chiqilib, ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik va uyg‘unlik ochib berilib, fors-major holati milliy huquq tizimida kompleks huquqiy konstruksiya ekanligi ilmiy-nazariy jihatdan asoslantirildi.

1.2. Mualliflik yondashuvi asosida fors-major holatining ilmiy ta’rifi ishlab chiqilib, u huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining xohish-irodasi va xatti-harakatlariga bog‘liq bo‘lmagan, to‘satdan sodir bo‘lgan va oldindan bashorat qilish, muayyan sharoitlarda oqibatlari oldini olish yoki bartaraf etish mumkin bo‘lmagan favqulodda va muqarrar hodisa natijasida majburiyatlarning buzilishi va aybsiz zarar yetkazilishiga olib kelgan holat ekanligi ilmiy-nazariy jihatdan asoslantirildi.

1.3. Fors-major holatini huquqiy tartibga solishda ilk marotaba gibrid (aralash) huquqiy tartibga solish fenomeni mohiyati va huquqiy tabiati tadqiq etilib, sivilistika nazariyasi boyitildi. O‘zbekiston Respublikasida fors-major holatlari bilan bog‘liq munosabatlar ham qonunchilik, ham ish muomalasi odatlari bilan huquqiy tartibga

solib kelinayotganligi, huquqiy tartibga solishning ushbu gibrid (aralash) tizimiga o‘tilganligi to‘g‘ri yondashuv ekanligi va uni takomillashtirish lozimligi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslantirildi.

1.4. Fors-major holatiga oid huquqiy normalar turli huquq sohalarida amal qiladi. Biroq, fors-major holati tushunchasi, belgilari va uni adolatli baholash mezonlari biror-bir huquq sohasida mavjud emas. Bu o‘z navbatida fors-major holatining mazmun-mohiyatini tushunish va uni baholash bo‘yicha turlicha talqinlarni yuzaga keltiradi. Hozirda fuqarolik, mehnat, soliq, bojxona huquqi va boshqa huquq sohalarida fors-major holatiga oid mavjud bo‘lgan normalar o‘rtasida o‘zaro umumiylik bo‘lishi bilan birga, ziddiyatlar ham mavjud. Jumladan, fuqarolik huquqida fors-major holatiga oid huquqiy norma “tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan shaxs majburiyatni lozim darajada bajarishga yengib bo‘lmaydigan kuch, ya’ni favqulodda va muayyan sharoitlarda oldini olib bo‘lmaydigan vaziyatlar (fors-major) tufayli imkon bo‘lmaganligini isbotlay olmasa, javobgar bo‘ladi” deb belgilangan bo‘lsa, mehnat huquqida “zarar bartaraf etib bo‘lmaydigan kuch oqibatida yuzaga kelgan hollarda xodimning moddiy javobgarligi istisno etiladi” deb belgilangan yoki bojxona huquqida “tabiat hodisalari yoki yuridik va jismoniy shaxslarning xohish-irodasi hamda xatti-harakatlariga bog‘liq bo‘lmagan boshqa holatlar sababli kelib chiqqan, shuning oqibatida mazkur shaxslar qabul qilgan majburiyatlarini bajara olmaydigan favqulodda va oldini olib bo‘lmaydigan, kutilmagan holatlar yengib bo‘lmas kuch ta’siri hisoblanadi” deb belgilangan. Huquq sohalari o‘rtasidagi bunday farqlanish fors-major holatiga oid kompleks huquqiy konstruksiyaning mohiyatidagi birlik va uzviylikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu asosda fors-major holati fuqarolik huquqining majburiyat instituti tarkibida shakllangan fuqarolik huquqiy kategoriya ekanligi tahlil qilinib, uning huquqiy munosabatlar tizimida umumhuquqiy kategoriya va milliy huquq tizimida kompleks huquqiy konstruksiya mohiyatidagi birlik va uzviylikni ta’minlash maqsadida, fors-major holati qaysi huquqiy munosabat bilan bog‘liq bo‘lishidan qat’iy nazar, uning tushunchasi, belgilari va baholash mezonlari fuqarolik huquqi normalari asosida belgilanishi lozimligi ilmiy-nazariy jihatdan asoslantirildi.

1.5. Fors-major holatini to‘g‘ri va obyektiv baholashda, uning favquloddaligi, muqarrarligi, taraflar nazoratidan tashqari to‘siqligi va nisbiyligi kabi belgilari mavjudligi inobatga olinishi lozim. Fors-major holatini baholashning adolatli mezonlari sifatida uning belgilarini tadbiq etish maqsadga muvofiq.

Fors-major holatini baholashning adolat mezonlarini tahlil qilish asosida, ularning mazmun-mohiyati ochib berildi:

- yuzaga kelgan holatning favquloddaligi – taraflarning oqilona sinchkovligi va ehtiyotkorligi mavjud bo‘lgan holda, uni oldindan ko‘rish yoki bilish mumkin emasligi, ya’ni taraflar faoliyati xavf-xatarlari doirasidan tashqarida to‘satdan paydo bo‘lgan tahdidligi;

- salbiy oqibatlar vujudga kelishining muqarrarligi – taraflar bunday oqibatlarning oldini olishga imkon beradigan choralar ko‘rishini asosli ravishda

kutish mumkin emasligi, ya’ni ko‘riladigan har qanday zamonaviy choralarning natija bermasligi;

- yuzaga kelgan holatning taraflar nazoratidan tashqari to‘siqligi – majburiyatning bajarilmasligi uni bajarmagan tarafning nazorati ostida bo‘lmagan to‘siq tufayli yuzaga kelganligi va ayni ushbu to‘siq yuzaga kelgan holat natijasi ekanligi;

- yuzaga kelgan holatning nisbiyligi – uning yuzaga kelish joyi, vaqti, sharoitlari, shuningdek tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish sharoitlari va muayyan shartnoma munosabatlarining boshqa holatlari asosida kompleks baholanishi.

1.6. Ijtimoiy xarakterdagi harbiy harakatlar, urushlar, terrorchilik harakatlari, uchinchi shaxslarning yashirin harakatlari, ish tashlashlar (zabastovkalar), shuningdek yuridik xarakterdagi davlat hokimiyati organlari tomonidan (qonuniy va noqonuniy) normativ-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi kabi voqea-hodisalar fors-major holati sifatida majburiyatlarning buzilishi va aybsiz zarar yetkazilishiga olib keladigan fuqarolik-huquqiy xususiyatlari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslab berildi.

1.7. Delikt majburiyatlar bo‘yicha davlat organlari va ular mansabdor shaxslari, jumladan tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar, surishtiruv, dastlabki tergov, prokuratura organlari va sudning tadbirkorlik sub’yektlariga nisbatan qonunga xilof harakatlari oqibatida tadbirkorlik sub’yektlari va kontragentlar (uchinchi shaxslar) o‘rtasida tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarishning qiyinlashishi yoki buzilishi tufayli aybsiz zarar yetkazilganlik holatini yuridik fakt sifatida fors-major holati deb topish to‘g‘risidagi tadbirkorlik sub’yektlarining da’vo talablari sudlar tomonidan qanoatlantirilishi lozimligi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslantirildi.

1.8. Sud tomonidan manfaatdor taraf (qarzdor)ning “davlat hokimiyati organlari tomonidan normativ-huquqiy hujjatning qabul qilinishi”, shuningdek “davlat organlari va ular mansabdor shaxslari, shu jumladan tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar, surishtiruv, dastlabki tergov, prokuratura organlari va sudning tadbirkorlik sub’yektlariga nisbatan qonunga xilof harakatlari”ni yuridik fakt sifatida fors-major holati deb topish to‘g‘risidagi talablari qanoatlantirilmagan hollarda, manfaatdor taraf (qarzdor) o‘zining konstitutsiyaviy huquqlaridan to‘liq foydalangan holda “insofli asosda qarshi turish” tamoyili asosida sudning keyingi instansiyalariga boqichma-bosqich murojaat qilishi yoki kreditor bilan javobgarlikdan ozod qilinishi to‘g‘risida kelishuvga erishishi lozimligi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslantirib berildi.

1.9. Fors-major holatiga oid normalarning dispozitivlik tamoyili asosida belgilanishi afzalliklari, jumladan bunda shartnoma taraflari o‘zaro ishonch asosida tavakkalchiliklar (xavf-xatarlar salbiy oqibatlarini o‘z zimmasiga olish)ni taqsimlash orqali fors-major holatlariga oid shartlarni kelishib olishi, bu fors-major holatlari bo‘yicha sud amaliyotini barqarorlashtirishga xizmat qilishi tahlil qilinib, fuqarolik qonunchiligida fors-major holatiga oid huquqiy normalar dispozitivlik tamoyili asosida belgilab berilishi to‘g‘ri va samarali ekanligi ilmiy-nazariy jihatdan asoslantirildi.

1.10. O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligida fors-major holatiga oid huquqiy normalar faqat tadbirkorlik faoliyati sub’yektlariga nisbatan tatbiq etilishi belgilanganligi, fors-major holati o‘zaro huquq va majburiyatlar bilan bog‘liq bo‘lgan huquq sub’yektlari o‘rtasidagi huquqiy munosabatlarga ta’sir ko‘rsatadigan va muayyan huquqiy oqibatlarni yuzaga keltiradigan yuridik fakt ekanligi va javobgarlikdan ozod qilish yoki javobgarlikni istisno qilishning asosi sifatidagi fuqarolik-huquqiy kategoriya ekanligi tahlil qilinib, fuqarolik qonunchiligining fors-major holatiga oid huquq normalari fuqarolik muomalasining barcha ishtirokchilariga nisbatan tatbiq etilishi va bir xilda qo‘llanishi lozimligi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslantirildi.

1.11. Fors-major holatlariga o‘xshash holatlar – haqiqiy bo‘lmagan fors-major holati sifatida yuzaga keladigan va majburiyatlarning bajarilishiga to‘sqinlik qilishiga qaramasdan, javobgarlikdan ozod qilish yoki javobgarlikni istisno qilishning asosi sifatida tan olinmaydigan holatlar ekanligi tahlil qilinib, milliy huquq tizimiga “kvazi fors-major holati” tushunchasi kiritilishi va ushbu tushuncha fuqarolik qonunchiligi, shuningdek qonunchilikning boshqa tarmoq turlari doirasida keng qo‘llanilishi lozimligi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslantirildi.

1.12. Fuqarolik huquqiy munosabatlarda adolat va insofni qonunlarda mujassamlashtirish haqidagi sivilistika doktrinasining tamoyillarini namoyon bo‘lishi hisobga olinishi, fors-major holatining huquqiy va nohuquqiy nazariyasi asoslari hamda normativ negizi mavjudligi mamlakatimizda investitsion muhit jozibadorligini oshirishi va xorijiy rezidentlar ishonchini mustahkamlashi asoslantirildi.

1.13. Fors-major holatlari oqibatida yetkazilishi mumkin bo‘lgan zararlarni zamonaviy ilm-fan va texnika vositalaridan samarali foydalangan holda minimallashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha qarzdorning xatti-harakatlari mazmun-mohiyati tahlil qilinib, milliy huquq tizimiga fors-major holatiga “insofli asosda qarshi turish” tushunchasi kiritilishi va qarzdorning fors-major holatiga “insofli asosda qarshi turish”ga qaratilgan xatti-harakatlari “oqilonalik” “ehtiyotkorlik”, “g‘amxo‘rlik” va “qat’iyatlilik” tamoyillari asosida amalga oshirilishi lozimligi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslantirildi.

1.14. Fors-major holatlari bo‘yicha “status-kvo”ni qo‘llashda huquqbuzilishlarga, jumladan kontragentlarning asossiz boyib ketishiga yo‘l qo‘yilmasligi, shuningdek taraflar asosiy majburiyatlarni, xususan pul majburiyatlarini bajarishdan ozod qilinmasligi tahlil qilinib, fors-major holatlarida taraflar o‘rtasida zararlarning taqsimlanishi o‘zaro kelishuv yoki sud tartibida “adolatli taqsimlash” va “teng taqsimlash” tamoyillari asosida amalga oshirilishi va ushbu tamoyillar amaldagi qonunchilik hujjatlariga kiritilishi lozimligi ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berildi.

1.15. Respublika hududida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan har qanday tabiiy ofatlar va texnogen xavfli vaziyatlarni prognoz qilish natijasida olingan ma’lumotlarni bir joyga to‘plash, saqlash va ularni tezkor ravishda yetkazib berish bo‘yicha maxsus xizmat, ya’ni Yagona davlat raqamli axborotlar Markazi (YaDRAM) faoliyati tashkil etilishi, ushbu “YaDRAM” mustaqil markaziy ijroiya

organi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining organlari tizimida faoliyat ko‘rsatishi va to‘plangan ma’lumotlarni raqamli axborot-kommunikatsiya tizimlari orqali xalq xo‘jaligi barcha sohalari, shu jumladan har bir fuqaro va tadbirkorlik sub’yektiga tezkor ravishda manzilli yetkazib berilishini ta’minlash lozimligi, shuningdek Yagona davlat raqamli axborotlar Markazi (YaDRAM) faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishga qaratilgan normativ-huquqiy hamda metodik baza yaratilishi zarurligi ilmiy-amaliy jihatdan asoslantirildi.

1.16. Fuqarolik-huquqiy javobgarlikni belgilashda fors-major holatining o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish asosida, uning huquqiy oqibatlari ochib berildi:

- agar, fuqarolik-huquqiy javobgarlikning asosi ayb bo‘ladigan bo‘lsa, unda fors-major holatida qarzdor javobgarlikdan ozod qilinadi;

- agar, fuqarolik-huquqiy javobgarlikni istisno etishning asosi aybsizlik bo‘ladigan bo‘lsa, delikt majburiyatlar bo‘yicha javobgarlikni belgilashda faoliyati tevarak atrofdagilarga oshiqcha xavf tug‘diradigan yuridik shaxslar va fuqarolar oshiqcha xavf manbai yetkazgan zarar fors-major holati yoki jabrlanuvchining qasddan qilgan harakati oqibatida yuzaga kelganligi isbotlangan va zarar yetkazgan shaxsning xatti-harakatlari bilan zarar o‘rtasida sababiy bog‘lanish bo‘lmasa, unda fors-major holatida qarzdorning javobgarligi istisno etiladi;

- agar aybning bo‘lishi yoki bo‘lmasligidan qat’iy nazar javobgarlik belgilangan bo‘lsa, unda fors-major holati ahamiyatga ega emas va hech qanday huquqiy oqibat tug‘dirmaydi.

1.17. Fors-major holatini huquqiy tartibga solish mexanizmining samaradorligi bevosita huquqni qo‘llovchilar, shu jumladan sudyalar tomonidan huquq normalarining to‘g‘ri, aniq va bir xilda talqin qilinishi, ya’ni ularning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasiga bog‘liqligi, sudyalar korpusi fors-major holatining mazmun-mohiyati, uning yuridik tabiati va ushbu holatlarga oid qonun normalarini qo‘llashni to‘la anglab yetishi lozimligi tahlil qilinib, O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabining o‘quv dasturlariga fors-major holati bo‘yicha mavzular kiritilishi, sudyalar uchun qisqa muddatli o‘quv kurslari tashkil etilishi va tadbirkorlar uchun o‘quv qo‘llanmalari nashr etilishi lozimligi ilmiy-amaliy jihatdan asoslantirildi.

1.18. Fors-major holati bilan bog‘liq munosabatlarni huquqiy tartibga solishga oid ta’limotlar tizimli tahlil qilinib, fors-major holatining huquqiy asoslari dastlab bundan uch ming yil avvalgi zardushtiylik dini davrida odat huquqi me’yorlari, keyinchalik huquqiy norma ko‘rinishida qadimgi Rim xususiy huquqining majburiyat huquqi instituti tarkibida shakllanganligi va fors-major holati konsepsiyasi hozirgi zamon huquq tizimlariga Rim huquqidan kirib kelganligi, keyingi davrlarda islom huquqi, chor Rossiyasi huquqi va islom huquqi normalari asosida aralash huquq, sovet davri huquqi, milliy qonunchilik genezisida amal qilganligi ilmiy-nazariy jihatdan asoslantirildi.

II. O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarini takomillashtirish bo‘yicha bo‘lgan taklif va tavsiyalar:

2.1. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 333-moddasining uchinchi qismini quyidagi qo‘shimcha bilan to‘ldirish maqsadga muvofiq: “Vaziyatning

favquloddaligi uning muayyan sharoitda paydo bo‘lishi noodatiy ekanligini va qarzdorning xohish-irodasiga bog‘liq bo‘lmagan holda to‘satdan paydo bo‘lgan obyektiv to‘siq sifatida majburiyatlarning bajarilishini imkonsiz qilganligini, shuningdek uning muayyan sharoitlarda oldini olib bo‘lmaydigan vaziyat ekanligi qarzdorning barcha oqilona va qonuniy harakatlari yuzaga kelgan to‘siqlarni bartaraf etish uchun etarli bo‘lmaganligi va uning yuz berishi shubhasiz ekanligini ko‘rsatadi”. Chunki, ushbu moddaning fors-major holati belgilari mazmun-mohiyatini ochib beruvchi norma bilan to‘ldirilishi, qonun hujjatlarining huquqni qo‘llash amaliyotida turlicha talqin etilishiga yo‘l qo‘ymagan holda, to‘g‘ri va bir xilda qo‘llanishiga olib keladi.

2.2. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 991-moddasi quyidagi uchinchi qism bilan to‘ldirish maqsadga muvofiq: “Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar, surishtiruv, dastlabki tergov, prokuratura organlari va sudning qonunga xilof harakatlari natijasida tadbirkorlik subyektlarining qonunga xilof tarzda hukm etilganligi, jinoiy javobgarlikka tortilganligi va ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olinganligi tadbirkorlik subyektlari va kontragentlar o‘rtasida tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarishning qiyinlashishi yoki buzilishi tufayli aybsiz zarar etkazilishiga olib kelgan va agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, ushbu qonunga xilof harakatlar tadbirkorlik subyektlarining javobgarligini istisno etishning asosi hisoblanadi”. Ushbu normaning kiritilishi tadbirkorlik subyektlari sifatida fuqarolarga nisbatan tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar, surishtiruv, dastlabki tergov, prokuratura organlari va sudning qonunga xilof tarzda qo‘llagan huquqiy ta’sir choralari oqibatida ularning uchinchi shaxslar (kontragentlar) oldidagi majburiyatlarini bajara olmaganligi va aybsiz holda zarar etkazganligi uchun javobgarlikdan ozod bo‘lish huquqlarini ta’minlaydi. Zero, jamiyatning bugungi huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasi tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini adolat, insoflilik, halollik, oqilonalik, qonuniylik tamoyillariga qat’iy rioya etgan holda ishonchli himoya qilinishini taqozo etmoqda.

2.3. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 334 va 338-moddasini quyidagi qo‘shimchalar bilan to‘ldirish maqsadga muvofiq: “Fors-major holati shaxsning xohish-irodasi va xatti-harakatlariga bog‘liq bo‘lmagan, to‘satdan sodir bo‘lgan va uni oldindan bashorat qilish, oldini olish yoki bartaraf etish mumkin bo‘lmagan, favqulodda va muqarrar hodisa bo‘lib, uning favquloddaligi muayyan sharoitda paydo bo‘lishi noodatiy ekanligini va shaxsning xohish-irodasiga bog‘liq bo‘lmagan holda to‘satdan paydo bo‘lgan obyektiv to‘siq sifatida majburiyatlarning bajarilishini imkonsiz qilganligini, uning muayyan sharoitlarda oldini olib bo‘lmaydigan vaziyat ekanligi esa, shaxsning barcha oqilona va qonuniy harakatlari yuzaga kelgan to‘siqlarni bartaraf etish uchun etarli bo‘lmaganligi va uning yuz berishi shubhasiz ekanligini ko‘rsatadi”. Ushbu moddalarni fors-major holati tushunchasi va uning belgilari mohiyatini belgilab beruvchi norma bilan to‘ldirilishi O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik va Mehnat kodeksining normalarini bir-biriga moslashtirgan holda, ularning turlicha talqin qilinishini oldini oladi hamda huquqni

qo‘llash amaliyotida fors-major holatiga oid qonun hujjatlarining to‘g‘ri va bir xilda qo‘llanishiga olib keladi.

2.4. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 215-moddasi birinchi qismining birinchi bandi quyidagi qo‘shimcha bilan to‘ldirish maqsadga muvofiq: “Fors-major holati shaxsning xohish-irodasi va xatti-harakatlariga bog‘liq bo‘lmagan, to‘satdan sodir bo‘lgan va uni oldindan bashorat qilish, oldini olish yoki bartaraf etish mumkin bo‘lmagan, favqulodda va muqarrar hodisa bo‘lib, uning favquloddaligi muayyan sharoitda paydo bo‘lishi noodatiy ekanligini va shaxsning xohish-irodasiga bog‘liq bo‘lmagan holda to‘satdan paydo bo‘lgan obyektiv to‘siq sifatida majburiyatlarning bajarilishini imkonsiz qilganligini, uning muayyan sharoitlarda oldini olib bo‘lmaydigan vaziyat ekanligi esa, shaxsning barcha oqilona va qonuniy harakatlari yuzaga kelgan to‘siqlarni bartaraf etish uchun etarli bo‘lmaganligi va uning yuz berishi shubhasiz ekanligini ko‘rsatadi”. Ushbu moddaning fors-major holati tushunchasi va uning belgilari mohiyatini belgilovchi mazkur norma bilan to‘ldirilishi, soliq munosabatlari bilan bog‘liq huquqni qo‘llash amaliyotida fors-major holatiga oid qonun hujjatlarining to‘g‘ri va bir xilda qo‘llanishiga olib keladi.

2.5. O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining 14-moddasini quyidagi qo‘shimcha bilan to‘ldirish maqsadga muvofiq: “Fors-major holati shaxsning xohish-irodasi va xatti-harakatlariga bog‘liq bo‘lmagan, to‘satdan sodir bo‘lgan va uni oldindan bashorat qilish, oldini olish yoki bartaraf etish mumkin bo‘lmagan, favqulodda va muqarrar hodisa bo‘lib, uning favquloddaligi muayyan sharoitda paydo bo‘lishi noodatiy ekanligini va shaxsning xohish-irodasiga bog‘liq bo‘lmagan holda to‘satdan paydo bo‘lgan obyektiv to‘siq sifatida majburiyatlarning bajarilishini imkonsiz qilganligini, uning muayyan sharoitlarda oldini olib bo‘lmaydigan vaziyat ekanligi esa, shaxsning barcha oqilona va qonuniy harakatlari yuzaga kelgan to‘siqlarni bartaraf etish uchun etarli bo‘lmaganligi va uning yuz berishi shubhasiz ekanligini ko‘rsatadi”. Ushbu moddaning fors-major holati tushunchasi va uning belgilari mohiyatini belgilovchi mazkur norma bilan to‘ldirilishi, bojxona munosabatlari bilan bog‘liq huquqni qo‘llash amaliyotida fors-major holatiga oid qonun hujjatlarining to‘g‘ri va bir xilda qo‘llanishiga olib keladi.

III. Fors-major holatiga oid qonun hujjatlarini qo‘llash amaliyotini takomillashtirish bilan bog‘liq taklif va tavsiyalar:

3.1. Fors-major holati tufayli qarzdorning javobgarlik masalasini hal etishda vakolatli organlar tomonidan berilgan fors-major holati mavjudligini tasdiqlovchi hujjatlar (sertifikat va xulosalar) sudga taqdim etilgan bo‘lishiga qaramasdan, majburiyatlarni bajarmagan qarzdor javobgarlikdan ozod qilinishi uchun fors-major holatining mavjudligi va davomiyligi, fors-major holati va majburiyatlarni bajarishning mumkin emasligi yoki uni bajarishning kechiktirilishi o‘rtasida bevosita sabab-oqibat bog‘liqlik mavjudligi, ya’ni majburiyaning bajarilmasligi fors-major holati oqibati ekanligi, fors-major holati yuzaga kelishida qarzdorning ishtiroki yo‘qligi va bunday holat uning beparvoligi tufayli yuzaga kelmaganligi, ya’ni subyektiv sabablarning yo‘qligi, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlarning oldini olish (zararlarni minimallashtirish) bo‘yicha qarzdor tomonidan oqilonalik, ehtiyotkorlik, g‘amxo‘rlik va qat’iyatlilik bilan insofli asosda qarshi turilgan holda barcha choralarning ko‘rilganligi va fors-major holati to‘g‘risida

kreditor o‘z vaqtida xabardor qilinganligi kabi holatlar isbotlanishi lozim. Qarzdorning aybsizligi faqat uning o‘zi tomonidan isbotlansa, sud fors-major holatiga oid qonun hujjatlarini qo‘llash asosida uni javobgarlikdan ozod qilishi yoki aks holda, uning javobgarlikdan ozod etish to‘g‘risidagi da’vosini qanoatlantirishni rad qilishi lozim.

3.2. Hozirga qadar sudlar tomonidan fors-major holatiga oid qonun hujjatlarining to‘g‘ri va bir xilda qo‘llanishi bo‘yicha tushuntirishlar berilgan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori qabul qilinmagan. Biroq, fors-major holatiga oid milliy qonunchilik va sud amaliyotining hozirgi holati, shuningdek jamiyatning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Sudlar tomonidan fors-major holatiga oid qonun hujjatlarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilinishi zarurati mavjudligini ko‘rsatadi. Chunki, hozirgi davrda sodir bo‘layotgan turli-tuman tabiiy ofatlar, ijtimoiy, iqtisodiy, harbiy, siyosiy voqea-hodisalar va pandemiya oqibatlarida tadbirkorlik subyektlari tomonidan shartnoma majburiyatlarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajara olmaslik holatlari tez-tez uchrab turganligi bois, bunday holatlarda tadbirkorlik subyektlarining javobgarligi bilan bog‘liq ishlarni adolatli va qonuniy hal etishda fors-major holatiga oid qonun hujjatlarining to‘g‘ri va bir xilda qo‘llanishi bo‘yicha sudlarga tegishli tushuntirishlar berilishi maqsadga muvofiq. Shundan kelib chiqib, mazkur qarorning loyihasi ishlab chiqildi.

ONE-TIME SCIENTIFIC COUNCIL ON THE BASIS OF THE SCIENTIFIC COUNCIL NUMBER PhD.37/27.02.2020.Yu.107.01 OF THE HIGHER SCHOOL OF JUDGES IN THE PRESENCE OF THE SUPREME COUNCIL OF JUDGES OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

HIGHER SCHOOL OF JUDGES IN THE PRESENCE OF THE SUPREME COUNCIL OF JUDGES OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

ISANOV KHOLMUROD RUZIYEVICH

FORCE MAJOR AS A CIVIL-LEGAL CATEGORY: THEORY AND PRACTICE

12.00.03 – Civil law. Business law.
Family law. International private law.

ABSTRACT
of doctoral (Doctor of Science) dissertation on legal sciences

Tashkent – 2024

The theme of the Doctor of Legal Sciences (DSc) dissertation was registered in the Supreme Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan under the number B2021.1.DSc/Yu152.

The doctoral dissertation was completed at the Higher School of Judges under the Supreme Council of Judges of the Republic of Uzbekistan.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, English, Russian (resume)) on the "Ziyonet" Information and Education portal (www.ziyonet.uz).

Scientific consultant:	**Oqyulov Omonboy Oqyulovich** Doctor of Science in law, professor
Official opponents:	**Gulyamov Said Saidakhrorovich** Doctor of Science in law, professor
	Aminjonova Matluba Akhmedovna Doctor of Science in law, professor
	Shodmonov Furqat Mamayusupovich Doctor of Science in law, professor
The leading organization:	**Center for Advanced Training of Lawyers at the Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan**

Dissertation defense of the One-time academic council based on the scientific council number PhD.37/27..02.2020.Yu.107.01 of the Higher School of Judges under the Supreme Council of Judges of the Republic of Uzbekistan 19 April 15:30: will be held at its meeting at (Address: Chilonzor district, Chilonzor district, Tashkent city, 6, Cho'ponota street. Tel.: (99855) 501-01-89; fax: (99855) 501- 01-89; e-mail: tm_devon@mail.ru).

The dissertation can be viewed at the Information Resource Center of the Higher School of Judges under the Supreme Council of Judges of the Republic of Uzbekistan (registered under the number 16-24). (Address: 100097, Chilonzor district, Chilonzor district, Tashkent city, Choponota street, 6. Tel.: (99855) 501-01-89; fax: (99855) 501-01-89).

The abstract of the dissertation was distributed on “2” April 2024.
(Report of the “1” digital register dated “2” April 2024).

K.O. Sindarov

One-time chairman of the scientific council awarding scientific degrees, doctor of science in law, professor

M.P.Qalandarova

Scientific secretary of the one-time scientific council granting scientific degrees, candidate of science in law, associate professor

B.B. Samarxodjaev

Chairman of the scientific seminar under the one-time scientific council that grants scientific degrees, doctor of science in law, professor

INTRODUCTION (abstract of DSc thesis)

The actuality and relevance of the dissertation theme. The force majeure situations that occur due to the consequences of various natural disasters and social, economic, military, and political situations that occur frequently in the world have a negative impact not only on people's lives, health, and lifestyle, but also on economic relations. is doing. According to the report of the United Nations Office for Disaster Risk Reduction (UNISDR, Geneva), over the past 20 years, the world economy has suffered losses in the amount of 3 trillion US dollars as a result of the doubling of the number of natural disasters on earth[8]. Every year, an average of 1.4 million inhabitants of our republic are affected by the consequences of natural disasters, causing damage in the amount of 3 billion US dollars[9]. Reducing the negative consequences of natural disasters and catastrophic events and protecting the rights and legal interests of participants in economic relations shows the relevance of this field. This requires the creation of effective mechanisms for legal regulation of relations related to force majeure situations caused by complex situations.

In the world, including Anglo-Saxon, Romano-Germanic and Islamic countries, the category of force majeure exists as a scientific category, a legal segment, and a category of judicial practice. It successfully fulfills the function of protecting subjects who are in a difficult situation due to unforeseen circumstances in all countries on the basis of justice and fairness. Therefore, it is important to study the legislation, law enforcement and judicial practice of foreign countries regarding force majeure, as well as international practice, to find a scientific-theoretical and practical solution to the problems encountered in the legislation and law enforcement practice.

Comprehensive program measures are being implemented in our republic to ensure the rule of law, reform the judicial system, and legal regulation of relations related to force majeure. In particular, the "Uzbekistan-2030" strategy[10] envisages important tasks in the priority direction "Ensuring the rule of law, organizing public administration at the service of the people". In the doctrine of national law of our country, including the theory of civil studies, a comprehensive and perfect paradigm has not been developed regarding the legal nature of the category of force majeure. Its characteristics as a legal and non-legal source have not been fully analyzed. The practice of uniform approaches and interpretations regarding the category of force majeure has not been formed in law enforcement and judicial practice. In particular, there are cases of defining the scope of force majeure situations in an expanded or limited manner. It indicates the urgency of the scientific-theoretical and practical problems related to the improvement of the force majeure institute and the need to

[8]Report of the United Nations Office for Disaster Risk Reduction (UNISDR) “UN: Climate change increases the number of natural disasters.” https://universe-tts.su/main/klimat/86817-oon-izmenenie-klimata-uvelichivaet-chislo-prirodnyh-katastrof.html;

[9] https://mineconomy.uz/uz/news/view/4105.

[10] Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated September 11, 2023 No. PF-158. https://old.lex.uz/docs/6600413.

develop scientific-practical proposals and recommendations aimed at solving these problems.

Civil Code of the Republic of Uzbekistan (1996), Labor Code (2022), Customs Code (2016), Tax Code (2019), Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated April 5, 2019 No. F-5464 "Civil Code of the Republic of Uzbekistan Decree of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 625 dated October 28, 2022 "On the measures to improve the legislation" "On Approving the Administrative Regulations", the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated September 11, 2023 No. PF-158 "On the Strategy of Uzbekistan-2030" and other normative legal documents related to the field This research works to a certain extent to fulfill the specified tasks.

Compliance of the research with the priorities of the development of science and technology of the republic. This dissertation is in accordance with the priority direction of the republican science and technology development I. "Formation of a system of innovative ideas and ways of their implementation in the social, legal, economic, cultural and spiritual-educational development of the information society and the democratic state" done.

